

SAUDIYA ARABISTONI DAVLATCHILIGINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Ostonova Shahzoda

TDSHU “Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi” 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: PhD, dotsent **Go‘zal Qodirova**.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Saudiya Arabistoni davlatchiligining shakllanish jarayonlari, jumladan, Birinchi, Ikkinchi va Uchinchi Saudiya davlatlarining shakllanish bosqichlari izchil tahlil qilinib, Saudlar sulolasi va vahhobiylik oqimi davlat legitimligini ta‘minlashdagi roli ochib berilgan. Shuningdek, Usmonli imperiyasi va Buyuk Britaniya kabi tashqi kuchlarning Saudiya davlatchiligi shakllanishiga ko‘rsatgan ta‘siri ko‘rib chiqilgan. Qolaversa, ushbu maqola Saudiya Arabistoni davlatchilik modelining Yaqin Sharqdagi boshqa davlatlardan farqli jihatlarini tadqiq qilib, diniy legitimlik va mutlaq monarxiya uyg‘unligiga asoslangan siyosiy tizimning barqarorlik mexanizmlarini yoritib beradi.

Kalit so‘zlar: vahhobiylik, diniy legitimlik, qabilaviy tuzilma, siyosiy-diniy ittifoq, monarxiya, rentier davlat, Sayks-Pikot kelshuvi, “Vision 2030”

KIRISH

Yaqin Sharq mintaqasi tarixiy jihatdan siyosiy boshqaruv shakllarining xilma-xilligi bilan ajralib turadigan hudud hisoblanadi. Ushbu mintaqada imperiyalar, xalifaliklar, mustamlaka boshqaruvi va zamonaviy milliy davlatlar ketma-ket shakllanib kelgan. Shu jarayonda monarxik boshqaruv shakli alohida o‘rin egallab, bugungi kunga qadar saqlanib qolgan mutlaq yoki yarim mutlaq monarxiyalar Yaqin Sharq siyosiy tuzilmasining muhim tarkibiy qismi bo‘lib qolmoqda.

Mazkur monarxiyalar orasida Saudiya Arabistoni siyosiy barqarorligi, mintaqaviy ta‘sir kuchi va xalqaro maydondagi faolligi bilan ajralib turadi. Saudiya Arabistoni Yaqin Sharqdagi siyosiy muvozanat, energetika xavfsizligi hamda diniy omillar bilan bog‘liq masalalarda yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Shu sababli, ushbu davlatda davlatchilikning qanday tarixiy, diniy va siyosiy sharoitlarda shakllanganlik masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Saudiya Arabistoni zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida, avvalo, strategik energetika resurslariga egaligi bilan muhim o‘rin tutadi. Neft va gaz zaxiralari davlatga iqtisodiy qudrat bilan bir qatorda xalqaro siyosiy ta‘sir imkoniyatlarini ham ta‘minlaydi. Bundan tashqari, Makkai Mukarrama va Madinai Munavvaraning ushbu davlat hududida joylashgani Saudiya Arabistonini butun islom dunyosining diniy markaziga aylantirgan. Bu holat Saudiya

siyosiy tizimida diniy legitimlik omilining alohida ahamiyat kasb etishiga sabab bo'lgan. Shu nuqtai nazardan, Saudiya Arabistonida davlatchilik va siyosiy hokimiyatning legitimlik asoslarini o'rganish xalqaro siyosatda din va hokimiyat o'rtasidagi munosabatlarni anglash uchun muhim nazariy ahamiyatga ega. Ayniqsa, sekulyar siyosiy modellardan farqli ravishda diniy legitimlikka tayangan davlat tuzilmasining qanday ishlashi masalasi zamonaviy siyosiy nazariyada dolzarb mavzu bo'lib qolmoqda. Saudiya Arabistoni misolida davlatchilik va legitimlik masalasi yanada murakkablashadi, chunki bu davlatda siyosiy hokimiyat demokratik saylovlar yoki konstitutsion mexanizmlar orqali emas, balki sulolaviy hukmronlik va diniy asoslar orqali mustahkamlangan. Ushbu holat Saudiya Arabistoni siyosiy modelini an'anaviy demokratik davlatlardan tubdan farqlaydi va uni alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganishni talab etadi. Saudiya Arabistonida davlatchilik shakllanishi murakkab va ko'p qirrali tarixiy jarayon bo'lib, uni faqatgina harbiy kuch yoki iqtisodiy omillar bilan izohlash yetarli emas. Ushbu jarayonning markazida diniy mafkura, siyosiy hokimiyat va qabilaviy ijtimoiy tuzilma o'rtasidagi o'zaro munosabatlar turadi. Xususan, XVIII asrda Ol Saud sulolasi va vahhobiylilik diniy oqimi o'rtasida shakllangan ittifoq Saudiya davlatchiligining siyosiy va mafkuraviy poydevorini yaratdi ¹. Ushbu ittifoq siyosiy hokimiyatni diniy jihatdan legitimlashtirish bilan birga, qabilaviy jamiyat sharoitida markazlashgan boshqaruvni shakllantirish imkonini berdi. Diniy mafkura siyosiy bo'ysunishni muqaddaslashtirib, hukmdor sulolaning hokimiyatini diniy burch darajasiga ko'tardi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Saudiya Arabistonida davlatchilik shakllanishi masalasi xorijiy tadqiqotlar doirasida keng o'rganilgan. Mazkur yo'nalishda mashhur olimlardan biri, London universiteti professori Madavi Al-Rashid hisoblanadi. Uning "*A History of Saudi Arabia*" nomli monografiyasi Saudiya Arabistonida davlatchilikning tarixiy bosqichlarini tizimli tarzda yoritib beradi. Muallif asarda Ol Saud sulolasining siyosiy hokimiyati, vahhobiylilik oqimi orqali shakllangan diniy legitimlik hamda qabilaviy jamiyat bilan o'zaro aloqalarni chuqur tahlil qiladi. Al-Rashid Saudiya davlatining barqarorligini tushuntirishda diniy mafkura va sulolaviy boshqaruvning o'zaro uyg'unligini asosiy omil sifatida ko'rsatadi ². Saudiya davlatchiligining diniy asoslarini tadqiq etishda britaniyalik tarixshunos Devid Komminsning "*The Wahhabi Mission and Saudi Arabia*" nomli monografiyasi ham alohida ahamiyatga ega. Muallif ushbu asarida Muhammad ibn Abdulvahhob va Ol Saud sulolasi o'rtasidagi

¹ Delong-Bas, N. Wahhabi Islam: From Revival and Reform to Global Jihad (Oxford: Oxford University Press, 2004), Retrieved from <https://global.oup.com/academic/product/wahhabi-islam-9780195179711/>

² Al-Rasheed, M. A History of Saudi Arabia. Cambridge: Cambridge University Press, 2010 Retrieved from <https://www.cambridge.org/9780521747547>

ittifoqni tarixiy va mafkuraviy jihatdan tahlil qiladi. Kommins vahhobiylilik oqimining faqat diniy harakat emas, balki siyosiy hokimiyatni legitimlashtiruvchi mexanizm sifatida shakllanganini ilmiy asosda ko'rsatadi³. Ushbu yondashuv Saudiya Arabistonidagi siyosiy tizimning diniy asoslarini tushunishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

NATIJALAR

Saudiya Arabistonida davlatchilik shakllanishi uch asosiy bosqich orqali kechgan. Har bir bosqichda diniy legitimlik, qabilaviy tuzilma va siyosiy hokimiyat uyg'unligi markaziy rol o'ynagan. Shu bilan birga, ichki va tashqi qarshiliklar davlatning shakllanish jarayoniga ta'sir ko'rsatgan.

Birinchi Saudiya davlati (1744–1818). Birinchi Saudiya davlati Najd hududida vujudga keldi. Najd – Arabiston yarimorolidagi markaziy hudud bo'lib, bu yerda turli qabilalar va kichik xonliklar yashagan. Xonliklar – mahalliy hukmdorlar boshqaruvidagi hududiy siyosiy birliklar bo'lib, ular orasida doimiy raqobat va ittifoqlar mavjud edi. 1744-yilda Diriyya qabilasi hududlarida – Najdning janubiy va markaziy qismlarida hukmronlik qilgan Muhammad ibn Saud, Najddagi kichik bir qabilaviy hukmdor, Diriyya yaqinidagi Al-Uyayna va boshqa qishloqlarida faoliyat yuritgan diniy islohotchi Muhammad ibn Abdulvahhob bilan ittifoq tuzdi. Ushbu ittifoq siyosiy va hokimiyatning xalq va jamiyat tomonidan diniy me'yorlar va e'tiqod asosida qabul qilinuvchi diniy legitimlikni birlashtirdi. Chunki vahhobiylilik Muhammad ibn Abdulvahhob tomonidan asos solingan diniy harakat bo'lib, u Islomning asl mohiyatini qayta tiklashni va diniy amaliyotlarni soddalashtirishni maqsad qilgan edi.

Vahhobiylilik, asosan, shirk (Allohga sherik qo'shish) va bid'at (Islomda yangi paydo bo'lgan amaliyotlar)ga qarshi chiqdi, diniy e'tiqod va ibodatlarda sof va qat'iy uslubni targ'ib qildi. Bu oqim Ol Saud sulolasiga hokimiyatni legitimlashtirishda kuchli ideologik asos berdi va qabilalar hamda mahalliy jamoalarga hokimiyatni qabul qilishni osonlashtirdi. Birinchi Saudiya davlati faoliyatini Najddan tashqariga kengaytirishga harakat qildi. Bu kengayish jarayonida Ol Saud sulolasi Usmonli imperiyasi va uning hududiy manfaatlariga qarshi chiqdi. Shu bilan birga, Ol Saud hokimiyati qabilalar bilan ittifoqlar o'rnatib, vahhobiylilik g'oyasini mintaqaviy miqyosda tarqatdi⁴. 1818-yilda Misr qo'shinlari tomonidan birinchi Saudiya davlati tugatilishi, diniy-siyosiy ittifoqlarning barqarorlikdagi cheklovlarini ko'rsatdi⁵. Shu

³ Commins, D. The Wahhabi Mission and Saudi Arabia. London: I.B. Tauris, 2000 Retrieved from <https://www.bloomsbury.com/uk/the-wahhabi-mission-and-saudi-arabia-9780857731357/>

⁴ Vassiliev, A. The History of Saudi Arabia (London: 2000) Retrieved from <https://archive.org/details/historyofsaudiar0000vass>

⁵ Herb, M. All in the Family: Absolutism, Revolution, and Democracy in the Middle Eastern Monarchies (Albany: SUNY Press, 1999), Retrieved from <https://www.sunypress.edu/p-3293-all-in-the-family.aspx>

tariqa, Birinchi Saudiya davlati qabilaviy jamiyatda diniy legitimlik, vahhobiylik va harbiy kuch orqali hokimiyatni mustahkamlashning birinchi tajribasini yaratdi.

Ikkinchi Saudiya davlati (1824–1891). Birinchi Saudiya davlati Usmonli imperiyasi tomonidan 1818-yilda tugatilgach, 1824-yilda Ol Saud sulolasi tomonidan Ikkinchi Saudiya davlati tashkil topdi. Bu davlatchilik avvalgisiga nisbatan zaifroq institutsional asosga ega bo'ldi. Ichki sulolaviy nizolar, shuningdek, qabilalar o'rtasidagi doimiy raqobat markazlashgan boshqaruvning samaradorligini pasaytirdi, natijada siyosiy barqarorlik cheklangan darajada bo'ldi ⁶. Shunga qaramay, vahhobiylik asosidagi diniy legitimlik saqlanib qoldi. Vahhobiylik Ol Saud sulolasining hokimiyatini ideologik jihatdan mustahkamlashni davom ettirdi, qabilalar orasida hokimiyatni qabul qilishni osonlashtirdi. Shu bilan birga, Ikkinchi Saudiya davlati davomida Najd hududi ichida va qisman Hasa va Qatif hududlarida siyosiy nazoratni kengaytirish bo'yicha bir qancha harakatlar amalga oshirildi. Masalan, 1830-yillarda Ol Saud sulolasi Hasa qabilalari bilan ittifoqlar tuzib, hududiy nazoratni mustahkamlashga harakat qildi. Ammo siyosiy birlik yetarli darajada mustahkamlanmagani sababli, davlat hududiy kengayishda cheklovlarga duch keldi. 1840-yillarda Sulolaviy ichki nizolar va qabilalararo qarama-qarshiliklar, shuningdek, Qosim va Riyod hududlaridagi mahalliy hokimiyatlarning Ol Saud sulolasiga qarshiligi siyosiy barqarorlikni zaiflashtirdi. Shu davrda Ol Saud sulolasi qabilalarni o'z atrofida birlashtirish va nizolarni hal qilish orqali hokimiyatni tiklashga urinib, harbiy kampaniyalar va ittifoqlarni tashkil etdi ⁷. Shunday qilib, Ikkinchi Saudiya davlati tarixiy tajriba sifatida ko'rsatadiki, diniy legitimlik va sulolaviy hokimiyat bir-birini to'ldirishi kerak, ammo mustahkam institutsional mexanizmlar va qabilaviy tizim bilan uyg'un ishlamas ekan, davlat barqarorligini ta'minlash qiyin bo'ladi. Bu saboqlar uchinchi Saudiya davlati va zamonaviy Saudiya Arabistoni siyosiy tizimining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

⁶ Abu 'Aliya, A. F. H. (1991). Tarikh al-dawla al-sa'udiyya al-thaniya (1256–1309 AH / 1840–1891 AD). Riyadh: Dar al-Mareekh.

⁷ Al-Shammari, F. E. A. (2024). Al-dawla al-sa'udiyya al-thaniya (1282–1309 AH / 1865–1891 AD). Al-Qalzam Journal for Historical and Civilizational Studies.



1st Saudi State

Emirate of Dir'iyah

1727–1818



2nd Saudi State

Emirate of Nejd

1824–1891

1-rasm⁸.

Ilmiy adabiyotlarda Birinchi Saudiya davlatining shakllanish sanasi borasida ikki xil yondashuv mavjud. Ko'pchilik tadqiqotchilar davlatning boshlanishini 1744-yil, ya'ni Muhammad ibn Saud va Muhammad ibn Abdulvahhob o'rtasida siyosiy-diniy ittifoq tuzilgan davrdan boshlab hisoblaydilar. Aynan ushbu ittifoq Saudiya davlatchiligiga diniy legitimlik va ekspansion xarakter baxsh etib, qabilaviy hokimiyatni markazlashgan siyosiy tuzilmaga aylantirdi. Biroq ayrim manbalarda, xususan rasmiy tarixiy xaritalarda, 1727-yil — Ol Saud sulolasining Diriyyada hokimiyatni qo'lga kiritgan yili Birinchi Saudiya davlatining boshlanishi sifatida ko'rsatiladi. Shu bois 1727-yil sulolaviy hukmronlikning boshlanishi, 1744-yil esa Saudiya davlatchiligining siyosiy-diniy model sifatida shakllanish bosqichi deb baholanadi. Xaritaviy tahlil shuni ko'rsatadiki, Birinchi Saudiya davlati 1744-yildan keyin Najd markazidan tashqariga chiqib, sharqda Hasa va Qatif, g'arbda Hijoz (Makka va Madina), shimolda esa Arabiston yarimorolining chegaraviy hududlariga qadar kengaygan. Ikkinchi Saudiya davlati (1824–1891) esa hududiy jihatdan ancha cheklangan bo'lib, asosan Najd mintaqasi bilan chegaralangan. Shu sababli u ilmiy adabiyotlarda "Najd amirligi" yoki "Najd davlati" nomi bilan tilga olinadi. Ushbu farq Birinchi Saudiya davlatining ekspansion xarakteri bilan Ikkinchi Saudiya davlatining hududiy va siyosiy cheklanganligi o'rtasidagi asosiy tafovutni yaqqol namoyon etadi. (qarang: 1-rasm) 1902-yilda Riyod shahrining Abdulaziz ibn Saud tomonidan qayta egallanishi Saudiya davlatchiligining uchinchi bosqichini

⁸ Arab News (2022). The inside story of Saudi Arabia's Founding Day, celebrating the year it all began. Retrieved from <https://share.google/nL48yQggtybZ4Hc21>

boshlab berdi. Bu voqea Arabiston yarimorolida XIX asr oxiriga kelib yuzaga kelgan siyosiy parokandalik, qabilaviy fragmentatsiya va hokimiyat vakuumi sharoitida amalga oshirildi. Ikkinchi Saudiya davlatining qulashidan so'ng Najd hududi raqobatlashuvchi qabilalar va mahalliy hokimiyat markazlari o'rtasidagi kurash maydoniga aylangan edi. Abdulaziz ushbu vaziyatni siyosiy imkoniyat sifatida baholab, hokimiyatni qayta tiklash jarayonida harbiy kuchni diniy legitimlik va qabilaviy ittifoqlar bilan uyg'unlashtirdi. Bu yondashuv Saudiya davlatchiligining keyingi barcha bosqichlari uchun strukturaviy asos bo'lib xizmat qildi. 1902–1913-yillar davomida Najd hududida markazlashuv jarayoni izchil olib borildi. Abdulaziz siyosiy hokimiyatni mustahkamlashda faqat zabt etish siyosati bilan cheklanib qolmadi, balki qabilaviy elitalarni o'z siyosiy tizimiga inklyuziya qilish orqali ularni markaziy hokimiyat manfaatlariga bog'lab qo'ydi. Vahhobiylilik asosidagi diniy mafkura bu jarayonda muhim vosita bo'lib xizmat qildi: siyosiy bo'ysunish diniy burch sifatida talqin qilindi, natijada hokimiyatga qarshilik diniy jihatdan ham delegitimlashtirildi. Bu holat Saudiya modelini klassik harbiy-avtoritar tizimlardan farqlaydi va uni diniy-siyosiy simbiozga asoslangan davlat qurish modeli sifatida namoyon etadi.

1910-yillarning ikkinchi yarmiga kelib Saudiya siyosiy loyihasi tashqi omillar bilan bevosita to'qnasha boshladi. Birinchi jahon urushi va Usmonli imperiyasining yemirilishi Yaqin Sharqda yangi siyosiy tartibni shakllantirdi. 1916-yilda tuzilgan Sayks–Pikot kelishuvi Levant va Mesopotamiya hududlarida mustamlakachilik asosidagi davlat chegaralarini belgilab berdi. Biroq Saudiya hududi mazkur kelishuv doirasiga kiritilmadi. Bu holat tasodifiy emas edi: Arabiston yarimoroli Buyuk Britaniya tomonidan strategik jihatdan bilvosita nazorat qilinadigan hudud sifatida qaraldi, to'g'ridan-to'g'ri mandat boshqaruvi esa maqsadga muvofiq deb topilmadi. Natijada Saudiya davlatchiligi tashqi mustamlakachi institutlar tomonidan emas, balki ichki siyosiy konsolidatsiya orqali shakllandi. Siyosiy tahlil nuqtai nazaridan bu holat Saudiya Arabistonining nisbatan yuqori siyosiy barqarorligini tushuntiruvchi muhim omillardan biridir. 1920-yillarda Hijoz hududining egallanishi Saudiya davlatchiligi tarixida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. Makka va Madina ustidan nazorat o'rnatilishi siyosiy hokimiyatni faqat hududiy emas, balki transmilliy diniy miqyosda ham legitimlashtirdi. Shu tariqa Saudiya hukmdori o'z hokimiyatini Najd qabilalarigina emas, balki butun musulmon olami oldida ramziy jihatdan asoslash imkoniga ega bo'ldi. Bu holat siyosiy hokimiyatning legitimlik doirasini kengaytirib, Saudiya Arabistonini mintaqadagi boshqa siyosiy tuzilmalardan ajratib turuvchi omilga aylandi.

1932-yilda Saudiya Arabistoni Qirolligining e'lon qilinishi ushbu uzoq davom etgan harbiy, diniy va siyosiy integratsiya jarayonining mantiqiy yakuni bo'ldi. 1932-yildan keyingi davr Saudiya davlatchiligining institutsional mustahkamlanish bosqichi sifatida baholanadi. Yangi tashkil topgan davlat mutlaq monarxiya shaklida siyosiy tizimni rasmiylashtirdi. Siyosiy hokimiyat sulolaviy meros asosida taqsimlandi va muqobil siyosiy institutlarning shakllanishi tizimli ravishda cheklab qo'yildi. Bu davrda davlat qurilishi jarayoni byurokratik apparatni shakllantirish, hududiy boshqaruvni markazlashtirish va diniy institutlarni davlat nazoratiga olish orqali olib borildi. Siyosiy tizimda ulamolar hukmdor hokimiyatini shar'iy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi asosiy aktor sifatida faoliyat yuritdi⁹.

1938-yilda neft zaxiralarining aniqlanishi Saudiya Arabistoni siyosiy-iqtisodiy modelini tubdan o'zgartirdi. Neft daromadlari davlatni klassik rentier davlatga aylantirdi. Rentier davlat modeli sharoitida siyosiy hokimiyat aholidan soliq yig'ish orqali emas, balki tashqi bozorlardan olinadigan resurs rentasi orqali moliyalashtiriladi. Bu holat Saudiya Arabistonida davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar xarakterini tubdan o'zgartirdi. Davlat aholi uchun ijtimoiy farovonlik, subsidiyalar va bandlik imkoniyatlarini taqdim etdi, evaziga esa siyosiy ishtirokni chekladi. Natijada siyosiy muxolifatning ijtimoiy bazasi zaiflashdi va mutlaq monarxiya yanada mustahkamlandi¹⁰.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda Saudiya Arabistoni xalqaro siyosiy tizimga faol integratsiyalasha boshladi. AQSh bilan o'rnatilgan strategik hamkorlik Saudiya xavfsizligi va neft eksporti barqarorligini ta'minlovchi asosiy ustunga aylandi. Sovuq urush davrida Saudiya Arabistoni G'arb blokining mintaqaviy tayanch davlatiga aylandi va kommunistik qarshi siyosiy pozitsiyani egalladi. Shu bilan birga, Saudiya Arabistoni 1960-yilda tashkil etilgan OPEK doirasida yetakchi rolni egallab, global energetika bozoriga tizimli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu holat Saudiya Arabistonining tashqi siyosiy vaznini keskin oshirdi va uni faqat mintaqaviy emas, balki global aktorga aylantirdi¹¹. 1970–1980-yillar Saudiya siyosiy tizimi uchun murakkab sinov davri bo'ldi. 1979-yilda Makka voqealari va Eron islom inqilobi diniy-siyosiy muhitni keskinlashtirdi. Ushbu tahdidlar fonida Saudiya hokimiyati diniy institutlarga kengroq vakolatlar berish orqali ichki legitimlikni mustahkamlashga urindi. Natijada vahhobiylar davlat mafkurasi sifatida

⁹ Ochsenwald, W., & Fisher, S. (2011). The Middle East: A History. Retrieved from <https://archive.org/details/middleeasthistory>


¹⁰ Beblawi, H. (1987). The Rentier State in the Arab World. Arab Studies Quarterly, 9(4).

¹¹ Gause, F. G. (1994). Saudi Arabia over a Barrel. Foreign Affairs.

Retrieved from <https://www.foreignaffairs.com/articles/saudi-arabia/1994-03-01/saudi-arabia-over-barrel>

yanada kuchaytirildi. Biroq bu siyosat uzoq muddatli istiqbolda jamiyatning ijtimoiy modernizatsiyasini sekinlashtirdi va siyosiy moslashuvchanlikni chekladi.

1990–1991-yillardagi Fors ko‘rfazi urushi Saudiya Arabistoni xavfsizlik siyosatining tashqi kuchlarga qanchalik bog‘liqligini ochiq namoyon qildi. AQSh qo‘shinlarining Saudiya hududida joylashtirilishi diniy va siyosiy doiralarda jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi. Bu holat davlat legitimligining faqat diniy asoslar bilan cheklanib qolishi yetarli emasligini ko‘rsatdi va legitimlik inqirozi elementlarini yuzaga chiqardi. XXI asrga kelib Saudiya Arabistoni yangi strukturaviy chaqiriqlarga duch keldi. Neft narxlarining o‘zgaruvchanligi, aholi tarkibining yoshargani va global iqtisodiy raqobat siyosiy tizimdan yangi moslashuvchanlikni talab qildi. Shu sharoitda Muhammad bin Salmon yetakchiligida siyosiy hokimiyat legitimligining yangi modeli shakllana boshladi. 2016-yilda e‘lon qilingan “Vision 2030” dasturi diniy-sulolaviy legitimlikni iqtisodiy samaradorlik, milliy identitet va modernizatsiya g‘oyalari bilan to‘ldirishga qaratildi. Diniy institutlarning siyosiy ta’siri qisqartirildi, ijtimoiy cheklovlar yumshatildi va madaniy hayot qisman liberallashtirildi¹². Biroq ushbu modernizatsiya siyosiy plyuralizm bilan birga kechmadi. Aksincha, siyosiy hokimiyat yanada markazlashdi va qaror qabul qilish jarayoni tor doirada jamlandi. Bu holat Saudiya Arabistoni rivojlanishining avtoritar modernizatsiya modeliga mos kelishini ko‘rsatadi. Davlat iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni jadallashtirar ekan, siyosiy raqobat va muqobil legitimlik manbalarini qat’iy nazorat ostida ushlab turmoqda. Bugungi kunda Saudiya Arabistoni diniy legitimlikdan milliy-davlat legitimligiga o‘tish jarayonini boshdan kechirayotgan, biroq mutlaq monarxiya asoslarini saqlab qolayotgan siyosiy tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda.



2-rasm¹³.

¹² Central Intelligence Agency. Saudi Arabia – Government.

Retrieved from <https://www.cia.gov/the-world-factbook/countries/saudi-arabia/>

¹³ Third Saudi State: Unification of Saudi Arabia. (n.d.). Retrieved from <https://share.google/dQtthrKpiFxFrVWtz>

Xaritadan ko‘rinishicha, Uchinchi Saudiya davlati hududiy jihatdan bosqichma-bosqich kengaygan. 1902–1913-yillarda siyosiy nazorat Riyod va markaziy Najd bilan cheklangan bo‘lsa, 1913–1921-yillarda Hasa hududining qo‘shilishi orqali davlat Fors ko‘rfaziga chiqish imkoniga ega bo‘ldi. 1921–1926-yillarda Najd to‘liq birlashtirilib, markazlashgan boshqaruv mustahkamlandi. 1926–1932-yillarda esa Hijozning (Makka va Madina) egallanishi natijasida davlat hududi g‘arb va sharq yo‘nalishlarida yakuniy shaklga keldi hamda Saudiya Arabistoni Qirolligining e‘lon qilinishiga zamin yaratildi (qarang: 2-rasm).

MUHOKAMA

Saudiya Arabistonida siyosiy hokimiyat diniy legitimlik bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Vahhobiylik oqimi davlat mafkurasi sifatida shakllanib, siyosiy hukmronlikni diniy jihatdan asoslashga xizmat qilgan. Muhammad ibn Saud va Muhammad ibn Abdulvahhob o‘rtasidagi ittifoq siyosiy hokimiyatni qabilaviy jamiyatda qabul qilinishini osonlashtirdi. Ulamolar hukmdor qarorlarini shar‘iy talqinlar orqali qo‘llab-quvvatlab, hokimiyatning qabilalar va mahalliy jamoalar tomonidan qabul qilinishini mustahkamladi. Hukmdorlar esa ularga moddiy va siyosiy himoya ta‘minlab, diniy institutlarning salohiyatini saqlab qoldi. Shu tariqa, diniy legitimlik siyosiy barqarorlikni ta‘minlash va muqobil qarashlarni cheklash vositasi sifatida ishladi¹⁴. Mutlaq monarxiya shakli Saudiya Arabistonida qabilaviy jamiyat sharoitida markazlashgan hokimiyatni ta‘minlash uchun eng samarali vosita bo‘ldi. Ol Saud sulolasi qabilalar o‘rtasida muvozanatni saqlash va ichki nizolarni boshqarishda muhim rol o‘ynadi. Muqobil siyosiy institutlarning shakllanmaganligi (parlament yoki mustaqil fuqarolik institutlari yo‘qligi) mutlaq monarxiyaning mustahkamlanishiga zamin yaratdi. Shu sababli siyosiy legitimlik saylovlar yoki konstitutsion mexanizmlar orqali emas, balki diniy va tarixiy asoslar orqali ta‘minlandi¹⁵. Bu Saudiya modelini an‘anaviy demokratik davlatlardan tubdan farq qiladigan xususiyatga aylantiradi.

Saudiya davlatchiligi shakllanishida ichki va tashqi omillar birgalikda ta‘sir ko‘rsatgan. Najd hududi XVIII–XIX asrlarda turli qabilalar va mahalliy xonliklardan iborat edi. Qabilalar o‘rtasidagi ittifoqlar va qarama-qarshiliklar davlatning siyosiy barqarorligiga bevosita ta‘sir qilgan. Ol Saud sulolasi qabilalarni o‘z atrofida birlashtirish, nizolarni hal qilish va markazlashgan hokimiyatni shakllantirish orqali ichki siyosiy birlikni mustahkamladi. Bu qabilaviy integratsiya davlat institutlarining

¹⁴ Karimi, H., et al. (2022). Ideology and Geopolitics: Wahhabism Saudi Arabia's Geopolitical Territoriality. Journal of Political Science and International Relations. Retrieved from <https://doi.org/10.11648/j.jpsir.20220502.13>

¹⁵ The Creation of the United Saudi State in the Context of International Relations in the 1920s–1930s. (n.d.). ResearchGate. Retrieved from https://www.researchgate.net/publication/376826406_The_Creation_of_the_United_Saudi_State_in_the_Context_of_International_Relations_in_the_1920s-1930s

barqaror ishlashiga zamin yaratdi. Vahhobiylilik oqimi esa siyosiy hokimiyatni diniy jihatdan legitimlashtirishga xizmat qilgan. Muhammad ibn Abdulvahhob tomonidan targ'ib qilingan diniy qoidalar sulola hokimiyatini islomiy qadriyatlarga moslashtirdi va qabilalar hamda mahalliy jamoalarda hokimiyatni qabul qilishni osonlashtirdi¹⁶. Ushbu diniy legitimlik siyosiy nizolar va ichki qarshiliklarni kamaytirishda vosita bo'ldi. Ol Saud sulolasi ichki nizolarni hal qilish va qabilalararo muvozanatni saqlash uchun mustahkam siyosiy va harbiy strategiyalarni qo'lladi.

Masalan, Ikkinchi Saudiya davlati davrida ichki nizolar va qabilalararo raqobat markazlashgan boshqaruvning zaiflashishiga olib keldi, bu esa keyingi davrlarda kuchli sulolaviy hokimiyatning zarurligini ko'rsatdi. Saudiya davlatchiligi shakllanishida ichki omillar bilan bir qatorda tashqi omillar ham muhim rol o'ynagan. Birinchi Saudiya davlati hududiy jihatdan kengayib, Usmonli imperiyasining Arabiston yarimorolidagi manfaatlariga zid harakat qilganda, imperiya Misr orqali qo'shin yuborib, 1818-yilda davlatni tugatdi. Bu voqea Saudiya sulolasi va vahhobiylilik ittifoqi uchun kuchli ichki birlashuv va markazlashgan boshqaruvning zarurligini ko'rsatdi. Usmonlilar shuningdek, Najd va Hasa hududlarida siyosiy ta'sirni saqlab qolish uchun mahalliy qabilalar bilan ittifoqlar o'rnatgan, shuningdek, iqtisodiy va savdo yo'llarini nazorat qilgan. Ushbu omillar Saudiya davlatining siyosiy va harbiy strategiyalarini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Uchinchi Saudiya davlati davrida Abdulaziz ibn Saud Buyuk Britaniya bilan diplomatik aloqalarni o'rnatdi. 1915-yilda imzolangan shartnoma (Anglo-Saudi Treaty) Abdulazizning hududiy kengayish rejasini tashqi qo'llab-quvvatlash bilan mustahkamladi¹⁷. Shartnoma shartlariga ko'ra, Britaniya Saudiya sulolasini Usmonlilarga qarshi harbiy harakatlarda de-facto qo'llab-quvvatladi va ularni tan oldi. Bu, o'z navbatida, Saudiya hududlarida ichki siyosiy birlashuvni tezlashtirdi va qabilalararo ittifoqlarni mustahkamlashga yordam berdi. Arabiston yarimorolida boshqa qabilaviy sulolalar va kichik xonliklar ham Saudiya davlatchiligiga bevosita ta'sir qilgan. Masalan, Hasa va Qatif hududlaridagi mahalliy xonliklar bilan tuzilgan ittifoqlar Abdulazizga hududiy nazoratni kengaytirish imkonini berdi. Shu bilan birga, bu ittifoqlar qisman tashqi davlatlarning (Buyuk Britaniya va Usmonlilar) siyosiy va harbiy qo'llab-quvvatlashiga bog'liq bo'lgan. Arabiston yarimorolidagi savdo yo'llari, karvon yo'llari va neftga ega hududlar ham Saudiya sulolasining siyosiy strategiyasida hisobga olingan. Xususan, Hasa va Qatif hududlarining iqtisodiy ahamiyati hududiy kengayish strategiyasini belgilashda muhim omil bo'lgan. Shu

¹⁶ Saudi Arabia — Wahhabi movement. (n.d.). Britannica. Retrieved from <https://www.britannica.com/place/Saudi-Arabia/The-Wahhabi-movement>

¹⁷ Saudi Arabia, southern Arabia and the Gulf states from the First World War. (n.d.). Cambridge University Press. Retrieved from <https://www.cambridge.org/core/books/new-cambridge-history-of-islam/saudi-arabia-southern-arabia-and-the-gulf-states-from-the-first-world-war/F708A4CBB5254CD5E238466843BD58E1>

tariqa, ichki va tashqi omillar birlashib, Saudiya Arabistonining hududiy va siyosiy barqarorligini shakllantirgan.

Saudiya Arabistonining davlatchilik modeli Yaqin Sharqdagi boshqa davlatlardan keskin farq qiladi. Aksariyat mintaqa davlatlarida, masalan, Misr, Iroq yoki Suriya kabi mamlakatlarda siyosiy hokimiyat ko'pincha harbiy va byurokratik elitalar qo'lida jamlangan. Bu davlatlarda armiyaning roli juda katta bo'lib, siyosiy qarorlar va hukumatning barqarorligi asosan harbiy strategiya va davlat apparatining samaradorligiga tayanadi. Shu bilan birga, byurokratik tizim orqali resurslar taqsimoti va siyosiy hokimiyatning uzluksizligi ta'minlanadi. Saudiya Arabistonida esa vaziyat butunlay boshqacha. Bu mamlakatda siyosiy hokimiyatning asosiy manbai diniy legitimlik va sulolaviy hukmronlikdir, ya'ni, Qirollik hokimiyati nafaqat sulola a'zolarining meros orqali hokimiyatni davom ettirishiga, balki diniy institutlar va ulamolar tomonidan tan olinishi orqali mustahkamlanadi. Din va siyosatning bu o'ziga xos uyg'unligi Saudiya Arabistonida ichki barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Qirollik oilasi va ulamolar o'rtasidagi muvozanat siyosiy qarorlar va mintaqadagi ichki siyosiy xulq-atvorni shakllantiradi. Bu modelning mintaqaviy ahamiyati ham katta. Saudiya Arabistoni siyosiy qarorlarida diniy legitimlikka tayanishi tufayli boshqa Yaqin Sharq davlatlariga nisbatan o'ziga xos diplomatik va xalqaro munosabatlarni olib boradi. Masalan, boshqa davlatlar ko'proq siyosiy va iqtisodiy manfaatlarni asosiy mezon sifatida ko'rsa, Saudiya Arabistoni xalqaro aloqalarda diniy va sulolaviy nuqtai nazarlarni ham hisobga oladi. Shu sababli, mintaqadagi siyosiy xulq-atvorni, ichki barqarorlikni va diplomatik harakatlarni tushunishda Saudiya Arabistonining bu o'ziga xos modelini hisobga olish zarur.

XULOSA

Saudiya Arabistoni davlatchiligi tashqi mustamlaka boshqaruvi emas, balki ichki ijtimoiy, diniy va qabilaviy omillar asosida shakllandi. Ol Saud sulolasi va vahhobiylilik o'rtasidagi ittifoq siyosiy hokimiyatni diniy jihatdan legitimlashtirib, qabilaviy jamiyatda markazlashgan boshqaruvni ta'minladi. Birinchi va Ikkinchi Saudiya davlatlari tajribasi barqarorlik uchun diniy legitimlik bilan bir qatorda mustahkam siyosiy va boshqaruv mexanizmlari zarurligini ko'rsatdi. Ushbu tarixiy saboqlar Uchinchi Saudiya davlati davrida tizimli va ehtiyotkor siyosiy strategiyaning shakllanishiga olib keldi. Tashqi omillar, xususan, Usmonli imperiyasi bilan qarama-qarshilik va Buyuk Britaniya bilan aloqalar hududiy birlashuvni tezlashtirdi. Natijada, Saudiya Arabistoni mutlaq monarxiya, diniy legitimlik va qabilaviy integratsiyaga asoslangan o'ziga xos siyosiy model sifatida shakllandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Delong-Bas, N. Wahhabi Islam: From Revival and Reform to Global Jihad (Oxford: Oxford University Press, 2004), Retrieved from <https://global.oup.com/academic/product/wahhabi-islam-9780195179711/>
2. Al-Rasheed, M. A History of Saudi Arabia. Cambridge: Cambridge University Press, 2010. Retrieved from <https://www.cambridge.org/9780521747547>
3. Commins, D. The Wahhabi Mission and Saudi Arabia. London: I.B. Tauris, 2006. Retrieved from <https://www.bloomsbury.com/uk/the-wahhabi-mission-and-saudi-arabia-9780857731357/>
4. Vassiliev, A. The History of Saudi Arabia (London: Saqi Books, 2000), Retrieved from <https://archive.org/details/historyofsaudiar0000vass>
5. Herb, M. All in the Family: Absolutism, Revolution, and Democracy in the Middle Eastern Monarchies (Albany: SUNY Press, 1999), Retrieved from <https://www.sunypress.edu/p-3293-all-in-the-family.aspx>
6. Abu ‘Aliya, A. F. H. (1991). Tarikh al-dawla al-sa‘udiyya al-thaniya (1256–1309 AH / 1840–1891 AD). Riyadh: Dar al-Mareekh.
7. Al-Shammari, F. E. A. (2024). Al-dawla al-sa‘udiyya al-thaniya (1282–1309 AH / 1865–1891 AD). Al-Qalzam Journal for Historical and Civilizational Studies.
8. Arab News. (2022). The inside story of Saudi Arabia’s Founding Day, celebrating the year it all began. Retrieved from <https://share.google/nL48yQggtbyZ4Hc21>
9. Ochsenswald, W., & Fisher, S. (2011). The Middle East: A History. Retrieved from <https://archive.org/details/middleeasthistory>
10. Beblawi, H. (1987). The Rentier State in the Arab World. Arab Studies Quarterly, 9(4), pp. 383–398.
11. Gause, F. G. (1994). Saudi Arabia over a Barrel. Foreign Affairs. Retrieved from <https://www.foreignaffairs.com/articles/saudi-arabia/1994-03-01/saudi-arabia-over-barrel>
12. Central Intelligence Agency. Saudi Arabia – Government. Retrieved from <https://www.cia.gov/the-world-factbook/countries/saudi-arabia/>
13. Third Saudi State: Unification of Saudi Arabia. (n.d.). Retrieved from <https://share.google/dQtthrKpiFxFrVWtz>
14. Karimi, H., et al. (2022). Ideology and Geopolitics: Wahhabism Saudi Arabia's Geopolitical Territoriality. Journal of Political Science and International Relations. Retrieved from <https://doi.org/10.11648/j.jpsir.20220502.13>
15. The Creation of the United Saudi State in the Context of International Relations in the 1920s–1930s. (n.d.). ResearchGate. Retrieved from

[.https://www.researchgate.net/publication/376826406](https://www.researchgate.net/publication/376826406) The Creation of the United Saudi State in the Context of International Relations in the 1920s-1930s

16. Saudi Arabia — Wahhabi movement. (n.d.). Britannica. Retrieved from <https://www.britannica.com/place/Saudi-Arabia/The-Wahhabi-movement>

17. Saudi Arabia, southern Arabia and the Gulf states from the First World War. (n.d.). Cambridge University Press. Retrieved from <https://www.cambridge.org/core/books/new-cambridge-history-of-islam/saudi-arabia-southern-arabia-and-the-gulf-states-from-the-first-world-war/F708A4CBB5254CD5E238466843BD58E1>